

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Muassislar:
O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2006-yil 27-noyabr - 3-dekabr N:48 (66589)

SAHIFALARDA

BOG'CHAMIZGA BIR KE-LI-NG!



3-BETDA HAMMA YAXSHI NARSALAR BOLALARGA!



6-BETDA DIQQAT! DIQQAT!



8-BETDA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI

II BOB

XALQ HOKIMIYATCHILIGI

7-modda. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan iboralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilgan tartibda davlat hokimiyati kafolatlarini



HAQ DEB YASHAYDI O'ZBEK

Iymonning etagin tutgan tiz cho'kib,
Orini asragan bamisli ko'zdek,
Adolat yo'liga jonini tikib,
Haq degan va haq deb yashaydi o'zbek.

Qalbida o'stirgan mardlik niholin,
Mehnat-la topgandir nonning halolin,
Xudo nurli etgan chehra jamolin,
Haq degan va haq deb yashaydi o'zbek.

Temurbek g'ururin merosxo'ridir,
Orin saqlar joyi -yurak to'ridir,
Qalbini yoritgan iymon nuridir,
Haq degan va haq deb yashaydi o'zbek.

Bag'ri keng hattoki, samolardan ham,
Barchani biladi mudom o'zidek,
Butun ulug'ligin dilga qilib jam,
Haq degan va haq deb yashaydi o'zbek!

Akrom MALIKOV,
Toshkent viloyati, Piskent tumanidagi
7-maktabning 10-sinf o'quvchisi.



o'zlashtirish, hokimiyat iboralarini faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tartiblarini tuzish Konstitutsiyaga g'ilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

8-modda. O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

9-modda. Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi bilan belgilanadi.

10-modda. O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biror-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

11-modda. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.

12-modda. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasiga sifatida o'rnatilishi mumkin emas.


13-modda. O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplariga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

14-modda. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonunchilik prinsiplari asosida amalga oshiradi.



DAVRNING BOLASI



-Men poytaxtimizdagi 13-maktabning 8-sinfida o'qiyman. O'qishlarim a'lo. Tabiatan juda qiziquvchan bo'lganim uchun ham o'zimni har sohada sinab ko'rishga intilaman. O'zbekiston televideniyesida bolalar uchun beriladigan «Davarning bolasi» ko'rsatuvida boshlovchilik qilayotganimga ham olti oy bo'lib qoldi. Bu dargohda ustozlarimdan kiyinish madaniyatini,

kamera oldida o'zimni tutishni, eng muhimi, adabiy tilda ravon, chiroyli gapirishni o'rgandim. Matn va xabarlarni o'qish asnosida ko'plab ma'lumotlar o'lyapman. Yana bir quvonarli jihati shundaki, ko'rsatuv bizni ko'pchilikka tanitayпти. Yonimdan o'tib borayotgan tengdosh qizlarning, mana bu qiz «Davarning bolasi»da chiqadi-a, deyishlari o'z ustimda ishlashimga qanot beradi.

Yana, sportga, qiz bola bo'lsam-da, uning karate turiga juda qiziqaman. Poytaxtimizdagi «Jar» sport sog'lomlashtirish majmuasi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan shotokan karate do turi bilan murabbiyim Doniyor Toshmuhammedov rahbarligida muntazam shug'ullanaman.

Shu kunlarda maktabimizning 70 yilligini keng tantana qilish uchun tayyorgarlik ko'rayapmiz. Yangi ta'mirdan chiqqan bilim maskanimizga mos o'quvchi bo'lish uchun sinf rahbarimiz Zuhra opa boshchiligida tinimsiz harakatdamiz.

Hilola USMONXOJIYEVA,
Toshkent shahri.

«MURAVEY» MOTOSIKLIMIZ BOR

Bizning 62-maxsus maktab-internatimiz Samarqand shahrida joylashgan. Maskanimizda 196 nafar aqliy rivojlanishda nuqsoni bor bolajonlar tarbiyalanishadi. 2006-yilda «Kenap» ochiq turdagi hissadorlik jamiyati o'z hisobidan bir yarim million so'm mablag' sarflab, maskanimiz isitish tizimini, 600 ming so'm mablag' evaziga esa binomiz tomini ta'mirlab berdi. Birgina bu emas, jamiyat direktori Rustam Sattorovning tashabbusi bilan maktab-internatimizga kiyim-kechak hamda bolajonlarimiz uchun «Muravey» markali motosikli sovg'a qilindi. Bolajonlarimizning issiq sovg'udan muntazam ravishda xabardor bo'layotgan homiylarimizdan minnatdormiz.

Bo'riboy SAFAROV,
62-maxsus maktab-internati direktori.


HOMIYLAR SOVG'ASI

Karmana tumanida joylashgan maktab-internatimizda 267 nafar kar, soqov va ko'zi oqib bolalar tarbiyalanishadi. Bolajonlarga yaratilgan shart-sharoitlar risoladagidek. Ularga to'rt mahal issiq ovqat beriladi. Barcha qulayliklarga ega yotoqxona, dam olish xonalari tarbiyalanuvchilarimiz ixtiyorida.

Maskanimizga 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolajonlarimiz esa bog'chamizda tarbiyalanishadi. Tarbiyalanuvchilarimizning nutqini o'stirish, logoped mashg'ulotlariga alohida e'tibor qaratganimiz. Dildora Fayziyeva, Toshbibi Boymatova, Gulxan Shukurova kabi pedagoglarimiz har bir bola bilan xuddi o'z farzandlaridek shug'ullanishadi. Maktab-internatimiz direktori Amin Omonovning izlanuvchanligi bois ta'lim maskanimiz zamonaviy jihozlar bilan yetarlicha ta'minlangan. Homiylarimiz «Navoiy Azot» korxonasi, «Navoiy GRES» tashkiloti vakillari maktab-internatimizga tashrif buyurib, muntazam ravishda bolajonlarimizga turli sovg'a-salomlar ulashishadi. Joriy yilda «Navoiy GRES»i ikki guruhga mo'ljallangan yangi bog'cha binosini qurib, ishga tushirib berishdi. Bundan bolajonlarimizning ham, bizning ham quyonchimiz cheksiz.

Gulbahor ERGASHEVA,
Navoiy viloyati, 25-maxsus maktab-internatning
ma'naviy-marifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari.

Bu suratlarni tengdoshingiz Dilafro'z Mahkamova chizgan. U Toshkent shahridagi 193-o'rta maktabning 7-«D» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Rasm chizishni juda yaxshi ko'radi. Uy ishlarida esa onasiga eng yaqin yordamchi.



Saboq

YOLG'ONNING MISI CHIQDI

Bir qishloqda To'lqin ismli bola bor edi. U juda dangasa, hiylagar bo'lib, ota-onasiga aslo foydasi tegmasdi. Mabodo darsga kechikib qolsa, darrov biror bahonani ro'kach qilardi. Ustozi u kech qolganida, nega darsga kechikib kelding, deb so'rasa, u: -Bir kekxa odam qo'lida yuk bilan kelayotgan ekan. Men uning qo'lidan yukini olib, uyigacha kuzatib qo'ydim, shuning uchun kechikib keldim, -derkan. Ustozi bu so'zlardan quvonib To'lqinni maqtabdi. Bir kuni To'lqin do'sti Abdulhaq bilan tortishib qolib, darsga kelmabdi. Abdulhaq esa kechikib bo'lsa ham darsga kelibdi. Ustozi uning nima uchun darsga kech kelganini so'rganida, To'lqin bilan tortishib qolganini aytdi. Shunda ustoz: -Seni deb To'lqin darsga kelmadi, - deb Abdulhaqni jazolabdi. Ertasi kuni uddaburon To'lqin maktabga ko'ziga bo'yoq surib

kelibdi. Qo'rqib ketgan ustoz To'lqinga nima bo'lganini so'rabdi. Shunda To'lqin Abdulhaq uni shu ko'yga solganini aytdi. G'azabga tushgan ustoz To'lqinni Abdulhaqlarning uyiga boshlab boribdi va ota-onasiga bo'lgan voqeani aytib beribdi. Abdulhaq bu tuhmatga chidolmay, To'lqin yuziga shapaloq tortib yuboribdi. Shunda bo'yoq uning qo'llariga yuqibdi. Buni ko'rgan ustoz, ota-onasi lol qolishibdi. Siri fosh bo'lgan yolg'onchi To'lqin ulardan kechirim so'rabdi.

Zulayho MALLAYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi tumanidagi
Qori Niyoziy nomli 25-maktabning
6-«B» sinf o'quvchisi.

KIM DAN SO'RAY?

Assalomu alaykum tahririyat xodimlari! Men «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini o'qib boraman. Sizlarning men kabi yoshlarga qaratayotgan e'tiboringiz tahsinga sazovor. Tengdoshlarimning ijod namunalarini o'qib, qaniydi men ham ular kabi she'r yozsam, deya orzu qilaman. Yaqinda o'zimcha she'rlar mashq qildim. Lekin o'shanday holda sizga jo'natsam, gazetada chiqmasa kerak... She'rni yaxshi yozish uchun nimalarni bilish kerakligini, uning qonun-qoidasini kimdan so'rash lozimligini bilmayman. Mendan o'z maslahatingizni ayamasangiz.

Bashorat ABDURAIMOVA,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 14-son
ixtisoslashgan maktab-internatining II-sinf o'quvchisi.

Tahririyatdan: *Bashoratxon! She'riyatga oshno bo'lganingiz yaxshi. She'riyat bu - bir san'at. Avvalo uni tushunish kerak. Ko'p mutolaa qilish darkor. She'rlardan ko'proq yod oling. Vazn, qofiya she'riyat qoidalarini adabiyot fanidan o'rganingiz shubhasiz. Yozgan namunalaringizni eng avvalo adabiyot fani o'qituvchingizga ko'rsating. Keyin yosh ijodkorlar to'garagiga qatnashing. Tugal holatga kelgandagina she'rlaringizni bizga jo'nating.*

«O'ZBEK BOLASI»

Men Jasur Mirsoatovning shu nomdagi qo'shig'ini sevib tinglayman. Haqiqatan ham biz o'zbek bolasiga mazza bo'ldi. Hamma sharoitlar muhayyo. O'qishni xohlasak bo'lgani. Ingliz tili va kompyuterni yaxshi biladigan sinfdoshim chet ellarda o'qib kelyapti. Yana bir o'rtog'im esa sport tufayli jahon kezmoqda. Men ham algebra fani bo'yicha olimpiadada qatnashib, g'olib bo'lish niyatim bor.

Jamshid QUDRATOV,
Jizzah shahridagi 10-o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi.

«BIRGALIKDA AHIL OILAMIZ»

Men yaqinda shunday nomlangan yosh ijodkorlar festivalida qatnashib, diplom bilan taqdirlandim. Unda menga o'xshagan yosh rassomlar ishtirok etishdi. G'oliblarining rasmlari Hindistonga jo'natiladigan bo'ldi. Agar o'z ustimda ishlab, ko'proq rasm chizsam, mening rasmlarim ham chet el ko'rgazmalariga qo'yilar ekan. Rasmdan tashqari raqsga qatnayman. Menga milliy yo'nalishdagi raqslar yoqadi. San'at insonni go'zallikka yetaklaydi, deb to'g'ri aytishar ekan.

Madinabonu SATTOROVA,
Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumanidagi
248-maktabning I-sinf o'quvchisi.



BUVIJONIM NASIHATLARI

Buvijonim bizga doimo pand-u nasihatlar qiladilar. Ularning har bir gaplarini jon qulog'im bilan eshitaman va amal qilaman. Masalan, «kattalarning ko'ziga tik qaramasdan gapir, choyni xo'rillatmasdan ich, sochingni tunda tarama...»

kabi nasihatlari kelajakda juda qo'l kelishiga ishonaman. O'shanda men o'zgalarning oldida izza bo'lmayman. Hurmat topaman, deb o'ylayman. Bizning baxtimizga doimo sog' bo'ling, buvijon!

Gavhar BO'RONOVA,
Samarqand viloyati,
Kattaqo'rg'on tumanidagi
Jizmonsoy qishlog'i.

LOQAYDGA ISH BUYURSANG...

Loqaydga ish buyursang,
Loyga botasan.

Loqaydda shijoat yo'q,
Umrida saodat yo'q.

Loqaydning hunari yo'q,
Ish-yumushga ra'yi yo'q.

«2006-yil – Homiyar va shifokorlar yili»

Tongda ishga o'tlanib ko'chaga chiqsam, uch-to'rtta qo'shni ayol gurunglashib turishgan ekan. Shu payt singlisini bog'chaga qo'yib kelgan o'g'lim:

–Ayajon, 500 so'm pul berarkansiz, bog'chaga teatr kelarkan,- deb qoldi.

–Bog'chani yig'di-yig'disi jonga tegdi-da,-deydi Gulnoraxon ismli qo'shnim,

–bir bog'cha ta'miriga desa, bir o'quv qurollariga deb yig'adi.

–Voy, o'yinchog'-u idish-tovoqlargacha so'rashadi-ku.

–Ha, bog'chalarimiz ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishiga majbur bo'lib qolyapti-da. Lekin bugungi kunda boshqacha bog'chalar ham bor. Ularga katta-katta homiy tashkilotlar bosh-qosh bo'lib, barcha sharoitni muhayyo qilib berishmoqda. Ana shunday bog'chalardan biri Toshkent viloyati, Quyichirchiq tumanida joylashgan,-deb qoldi jurnalist qo'shnim Dilorom,- u kam ta'minlangan bolalarga xizmat qiladi, xohlasangiz, sizni ham olib boraman.

O'sha kuni Dilorom bilan birgalikda Quyichirchiq tumaniga yo'l oldik. Poytaxtdan ancha yiroqda, paxta dalalari ortida joylashgan Guliston shirkat xo'jaligiga kirib keldik. «Obodon» mahallasining ko'rki bo'lmish «Beg'ubor baxtli bolalik» nomidagi bog'cha bir yillik to'yini nishonlash uchun bayramona bezatilgan ekan. To'g'risi, qishloq sharoitida qishloqcha bog'chani tasavvur qilgandim. Uchta imoratdan iborat bolalar muassasasini aylangan sayin yuqoridagi tasavvurim quyosh chiqqanda

tarqagan bulutdek ranglarda, turli jorilgan karavotlar, stullar, mittivoylangan sport anjom-javonlari va boshqa eldan keltirilganligi turibdi. Yemakxonaga pokiza oshxonani ko'rdim.

pechlari ham eng zamona-

Yuvinish xonasidagi santexnikani

yo'q. Issiq suvni ham boplashibdi. Shaxsiy gigiyena vositalaridan atir sovun, sovun idishi, sochiqlar bir xilda bo'lib, har bir bolaning ism-sharifi yozilgan ilgichlarga birlashtirilgan.

Ichkaridan taralayotgan musiqa sadolari bizni o'ziga chorladi. Tantana boshlanay deb qolibdi-ku. O'zbekiston madhiyasi ostida kirib kelgan bolajonlarning bir-biridan chiroyli kiyinib olganini qarang. Kiyimiga qarab millatini bilib olish mushkul emas. O'zbek, rus, tatar, koreys, qozoqcha kiyingan bolajonlar bayramga rosa tayyorgarlik ko'rishibdi. Qo'shiq va she'rlari bilan tashrif buyurgan mehmonlarni lol qoldirishdi. Bog'cha homiyarlari – Xvan Che Su rahbarligidagi «Koriyontopki» koreyslarga ko'mak assosiyatsiyasining vakili Chon Do Gyon, «JCI» janubiy Koreya tashkilotining vakili va O'zbekistondagi «Aziana» aviakompaniyasining direktori Kim Pyong Chyollar

BOG'CHAMIZGA BIR KELI-I-NG!

liboslarigacha barchasini o'z zimmlariga olishgan ekan. Ayniqsa, «Shirin meva» kompaniyasi mikroavtobus ajratib berganini ota-onalar maqtay ketishdi. Bolalarni ana shu avtobus uylaridan olib kelib, yana uylariga eltib qo'yarkan. Quyichirchiq tumani

hokimining o'rinbosari Mahmud Eshonov, hokimiyatning ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassisi Nodira Toshxo'jayeva, tuman Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Iskandar Alashboyevlar ham faqat iliq gaplarni aytishdi.

– «Beg'ubor baxtli bolalik» Mas'uliyati cheklangan jamiyatimiz to'rt yo'nalishda ish olib boradi,- deydi maktabgacha tarbiya muassasasi direktori Kan Rimma Konstantinovna. – Koreys tili o'rgatish kursi, ignaterapiya – bepul tibbiy muolajali shifoxona, qariyalar uyi va bog'cha. Bugun siz faqat bog'chamizni ko'rdingiz.

Bog'chamizda 20 nafar tarbiyachi va boshqa mutaxassislar 40 nafar bolaga o'z mehrini berib ishlashmoqda. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Uchinchi ming yillik bolasi» dasturi asosida ish olib boramiz. Ko'rib turganingizdek, bog'chamiz yangicha andoza asosida tashkillahtirilgan. Yotoqxonaga, yemakxonaga, zal va darsxonaga alohida-alohida qurilgan. Homiyarimiz eng sifatli o'quv qurollarini bolajonlarga ravo ko'rishadi. Rang-barang suratli kitobchalar bolani fikrlashga o'rgatadi. Mana bu yirik «lego» o'yini, qo'g'irchoqlar va yumshoq o'yinchoqlar faqatgina bolalarga xizmat qiladi. Biz ko'rgazma uchun olib qo'yamaymiz. Mashg'ulotlar ham yangicha o'tiladi. «Nima? Qachon? Qayerda?» nomi ostida atrof muhit bilan tanishishadi, «Do, re, mi» musiqiy mashg'ulot bo'lsa, «Bir, ikki, uch» sport musobaqalari bo'ladi. Undan tashqari, matematika, o'zbek, rus, ingliz, koreys tillari, badiiy adabiyot va mohir qo'llar mashg'ulotlarini o'tamiz. Homiyarimizning himmatini yana tasdiqlash maqsadida shuni aytishim mumkinki, shahardagiga nisbatan 10 barobar kam haq to'lanadi. Qolgani homiyar hissasiga to'g'ri keladi.

Ko'tarinki kayfiyatda ortga qaytar ekanman, jamiyatimiz olg'a qadam tashlayotganidan, bunday bolalar muassasalari borgan sari ko'payayotganidan dilim ravshan topdi. Bolalarga baxtiyorlik nasib etayotganidan quvondim. Uddaburonlik bo'lsa bas, boshqa bog'chalar ham homiyarlarni jalb qilsa, yuqoridagi muammolar yechilishi shubhasiz.

Muharrama
PIRMATOVA.



Bitmas-tuganmas xazinaga boy maskan nima ekan deyapsizmi? Bu – kutubxonaga. U poytaxtimizning markazidagi shinam, ko'rkam tarixiy binoda joylashgan bo'lib, katta-yu kichikni o'z domiga tortadi. Bu yerda kitobxonlar ertaklar olamidani tortib ilm tubigacha sho'ng'iydi.

Mana 40 yildirki, O'zbekiston Respublikasi Davlat Bolalar kutubxonasi yiliga 13 mingdan ortiq kitobxonlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. O'z nomi bilan «Bolalar kutubxonasi»ning asosiy kitobxonlari o'quvchilardir. Yana talaba, ota-onalarining ham bu joydan qadami uzilmaydi. Barcha sohalar bo'yicha bolalar yoshini hisobga oluvchi ilmiy-ommabop-siyosiy, badiiy adabiyotlar va hatto SD, video, audio kassetalar jamlangan. Shuningdek, o'qituvchilar uchun ham ilmiy uslubiy, bibliografik nashrlar mavjud.

Bu o'ziga xos bir olamda faoliyat juda qizg'in... Aytaylik, «Sog'lom avlod» Media Markazi tashkil etilgan bo'lib, bunda «Shum bola» video klubi, «Kichikintoy» nomli bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish markazi, internet tarmog'iga ulangan kompyuter sinfi mavjuddir.

2003-yili kutubxonaga direktori Fotima opa Buxorova va bosh kutubxonachi Ulfat aka Sobirovlar Yaponiyaning madaniyat sohasidagi grantini olish uchun maxsus loyiha ishlab chiqishdi. Mazkur loyihada kutubxonaga ishini rivojlantirish, bolalar va o'smirlar ijodiy imkoniyatini ochish ko'zda tutilgan edi. Bu g'oya qo'llab-quvvatlanib, grantga loyiq topildi. Natijada, grant bo'yicha audio, video taqdimot jihozlari,

boshqariladigan kinoekranlar, audiotexnika, videotexnika va boshqalar (jami 240000 AQSH dollarilik miqdorda) bolalar kutubxonasiga topshirildi. Kompyuter sinfonasida maxsus «Beysik» klubi tashkil etilgan bo'lib, unga a'zo bo'lgan o'quvchilar istagan paytlarida kelib, kompyuterda ishlashni o'rganishlari mumkin. Bu klubning raisi poytaxtimizdagi 21-maktab o'quvchisi

ENG KATTA «XAZINA» JOYLASHGAN DARGOH

Saidakbar Saidmurodovdir. Toshkentdagi 18-maktabning 8-sinf o'quvchisi Valentina Kuznetsova, 64-maktab o'quvchisi Sabina Vosiqova, Aleksandra Jameletdinova klubning eng faol a'zolari. Ushbu bolalar kutubxonasi Rossiya Davlat bolalar kutubxonasi bilan do'stona aloqa o'rnatgan. 2004-yilning may oyida «Rossiya bolalar va o'quv adabiyoti ko'rgazmasi» bo'lib o'tdi. Ushbu ko'rgazmaga keltirilgan Rossiya nashriyotlarining 400dan ziyod kitobi kutubxonaga sovg'a tariqasida qoldirilgan.

–O'z navbatida 2004-yilning oktabr oyida «O'zbek bolalari va o'quv adabiyoti» ko'rgazmasini Moskvaga olib bordik, - deydi Fotima opa, - ushbu ko'rgazmaga barcha o'zbek nashriyotlari o'z mahsulotlarini taqdim etdilar. 2005-yilda Rossiya elchixonasi tomonidan taqdim etilgan kitoblarni barcha viloyat bolalar kutubxonalariga tantanali ravishda tarqatib keldik.

2006-yilda esa Rossiya

Kutubxonam – nurxonam

elchixonasi, «Roszarubejsent» bilan hamkorlikda rus bolalar yozuvchisi Agniya Bartoning 100 yilligiga bag'ishlab rasmlar ko'rgazmasini o'tkazdik. Shuningdek, Ukraina elchixonasi, Ukrainaning «Batkvishina» madaniyat markazi, Polsha elchixonasi, Polshaning «Zajeve» madaniyat markazlari bilan hamkorlikda bolalar rasmlari ko'rgazmasi o'tkazildi. Ko'rgazmada Toshkent shahridagi 17ta tasviriy san'at studiyalari va maktablardan 400ta o'quvchilar ishtirok etdi. Endi g'olib chiqqanlarning ishlari Polshada bo'lib o'tadigan ko'rgazmaga qo'yiladi. Kutubxonaga

jamoasi o'quvchilarni jalb etish maqsadida, Yaponiya elchixonasi bilan hamkorlikda kunchiqar mamlakat urf-odatlarini, madaniyati haqida ma'lumotlar beruvchi uchrashuvlar uyushtiradi, ekibana va an'anaviy yapon laylaklarini yasash hamda yapon tili o'rgatiladi.

Bu ziyo maskanida har yili «Eng yaxshi kitobxon» kabi qator ko'rik-tanlovlarni o'tkazish an'anaga aylanib qolgan. Kelgusida hamdo'stlik davlatlari kutubxonalari bilan yana-da keng aloqalar o'rnatish hamda 14ta ko'rgazma tashkil etish kabi ko'plab rejalar bor.

Aziz bolalar, bu «xazina»ga kirsangiz, tilsimotlarni kashf etib borasiz.

Shu kunlarda kutubxonachi opalar har bir kitobxonni «Tong yulduzi»ga obuna qilish bilan band. Bugungi gazetxon – ertangi kitobxon ekanligini bilishadi-da.

Saida ZOKIROVA.

SAMARQAND VA NAVOIYLIK GAZETXON O'QUVCHILAR

Samarqand viloyat Xalq ta'limi boshqarmasiga kirib borar ekanmiz, bizni ochiq chehra bilan O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan Xalq ta'limi xodimi, matbuot markazi rahbari Mavluda Ahtamova ochiq chehra bilan kutib oldi. Ustoz bilan suhbatimiz o'z gazetamiz «Tong yulduzi»ga obuna xususida bo'ldi. Ularning ta'kidlashicha, samarqandlik bolajonlar allaqachon 5655ta «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishibdi. Har 10 o'quvchiga bittadan gazeta degan shior o'rta tashlangan shu kunlarda obuna hamon davom etayotgan ekan.



Muxbir safardan qaytdi

hamda tumanda o'tkazilgan musobaqada birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Charos Yorqulova yengil atletika bo'yicha tumanda birinchi o'rinni, viloyatda esa ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Maktabimizda Xurshida Jabborova, Umida Xudoyqulova, Fotima Mamayusupova, Dilrabo To'rayeva singari fidoiy o'qituvchilar ko'pchilikni tashkil qilishadi. Ularning sa'y-harakatlari bois o'quvchilarimiz barcha bolalar nashrlariga o'z vaqtida obuna bo'lishdi. 1-dekabr gacha yana 30 dona «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lamiz. Chunki keyingi vaqtlarda gazeta sahifalarida tumanimiz o'quvchilarining ijod namunalari muntazam ravishda chop etilmoqda.

Suhbatimizni shu yerda yakunlab, pastdarg'omlik o'quvchilar-u ustozlar bilan xayrlashib, safarimizni Navoiy viloyati bo'ylab davom ettirdik.

Navoiylik o'quvchilar obuna borasida biroz orqada ekanlar. Belgilangan reja endigina 30 foizga uddalanibdi. Bu borada viloyat Xalq ta'limi bo'limi ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i Sherali Umarov shunday dedi: –Shu kechakunduzda obuna ko'rsatkichimiz biroz pastroq. Ammo «Tong yulduzi»ga obuna bo'lish istagidagi o'quvchilarimiz juda ko'p. 1-dekabr gacha belgilangan rejani ortig'i bilan uddalaymiz, albatta.

PASTDARG'OMLIK BILAG'ONLAR

Pastdarg'om Samarqand viloyatining paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan yirik tumanlaridan biridir. Bu yerlik bolajonlarning bilimdonligi, intiluvchanligiga havasimiz keldi. Boisi, ularning kitobxon va gazetonliklarida ekan.

Tumandagi Zulayho Mo'minova rahbarlik qilayotgan 52-o'rta ta'lim maktabida 473 nafar bolajonlar tahsil olishadi. Ularga 47 nafar malakali o'qituvchilar fan sirlarini qunt bilan o'rgatishmoqda. Ayniqsa, Umida Mirzayeva, Muhayyo Malikova, Sora Jumayeva, Azamat Rahmonov singari ustozlarning berayotgan saboqlaridan bolajonlar mamnun bo'lishmoqda. Ta'lim maskanida faoliyat ko'rsatayotgan turli fan hamda sport-sog'lomlashtirish to'garaklari o'quvchilar ixtiyorida.

Katta tanaffusga chiqqan o'quvchilardan bir guruhini suhbatga chorladik.

–Biz, - deya chuvillasha ketishdi o'zlarini Sherbek Davronov, Joziba Ochilova, Shohruh Ergashev, Marg'uba Ahadova, Shohista Shomurodova deya tanishtirgan 5-«A» sinf o'quvchilari, – sinf rahbarimiz Lola Bahriyeva bilan birgalikda «Tong yulduzi» gazetasi sahifalaridagi ertaklar, she'rlar, hikoyalarni sevib o'qiymiz. Gazetadagi rang-barang sahifalar bizga juda yoqadi, hayvonlar, qushlarning nomlari, tabiat manzaralari tasviri tushirilgan boshqotirmalar ko'proq e'lon qilinsa, yaxshi bo'lardi.

–Maktabimiz o'quvchilari «G'uncha», «Gulxan», «Tong yulduzi», «Sinf dosh» kabi bolalar nashrlarini sevib mutolaa qilishadi. Ayniqsa, «Tong yulduzi» gazetasiga ishtiyoqlari baland. Hozirgacha ushbu gazeta 70 nafar o'g'il-qiz obuna bo'lgan bo'lsa, o'quvchilarimizning qiziqishlariga qaraganda ular soni 100 dan ham ortsa

kerak, - deydi maktab rahbari Zulayho Mo'minova.

Maktabning 473 nafar o'quvchisidan 100 nafari shu paytgacha gazeta ga obuna bo'lganidan behad quvonib, shu tumandagi yana bir maktab sari yo'l oldik va bilim maskani direktori Xayrullo Turdiyev bilan ham aynan shu mavzuda suhbatlashdik.

Saodat Qalandarova qariyb 34 yildan buyon ustozlik kasbini moqda.

Ayni vaqtda tumandagi 54-umumta'lim maktabi direktori hamda maskandagi voleybol jamoasining kapitani ekan:

–Ta'lim maskanimiz 1927-



yilda qurilgan bo'lib, binolari ancha eskirib qolgan edi. 2008-yilda qayta qurish rejasiga kiritilganidan barchamiz mamnun bo'ldik.

Maktabimizda tahsil olayotgan 496 nafar bolajonlarimizning puxta bilim olishlari uchun astoydil harakat qilayapmiz. O'quvchilarimizning har tomonlama sog'lom bo'lib voyaga yetishishlari uchun barcha qulayliklarga ega shinam sport zalimiz bo'lmasa-da, mohir sportchilarimiz ko'pchilikni tashkil qiladi. 2002-yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan voleybol jamoamiz mahallalar o'rtasida

YANGI MAKTAB

–Keng va yorug' xonalar, barcha jihozlarga ega fan kabinetlari hamda zamonaviy sport zaliga ega bo'lgan yangi maktabda o'qishni kim xohlamaydi deysiz? Ikki qavatli 360 o'ringa ega yangi maktabimiz binosi ochilish arafasida, deydi quvonch bilan Xatirchi tumandagi 16-maktab direktori Farog'at Toshtemirova, - Ta'lim maskanimizda 525 nafar bolajonlar tahsil olishadi. O'quvchilarimiz uchun bunday qulayliklarni yaratishda tumanimiz hokimi Erkin Turdiyev, tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri Muhammadamin Haydarovlarning hissasi beqiyosdir.

Ayni kunlarda maktabimizda obuna qizg'in davom etmoqda. Bolajonlarimiz «Tong yulduzi»ni sevib o'qishadi. Ularning ko'pchiligi gazeta sahifalaridagi «Iqtisodan saboqlar» tanlovining faol ishtirokchilaridir. Shuning uchun ham bu nashrga obuna bo'lib, tanlov natijalarini kuzatib borishmoqchi. Yaqinda 50 nafar obunachilarimiz soni ikki barobar ortadi.

Samarqandlik hamda navoiylik o'quvchilar va ularning ustozlarining intiluvchanligi, izlanuvchanligi, o'qib-o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini ko'rib sevindik. Ayniqsa, obuna borasidagi tashkilotchiliklari risoladagidek. Bolajonlar sevimli gazetalari «Tong yulduzi»ga bir yilga obuna bo'lishidimi, demak, doimiy ravishda undagi rang-barang sahifalar, tengdoshlarining ijod namunalari, turli xabarlar, yangiliklar, qiziqarli tanlovlardan boxabar bo'ladi.

Jamila HAYDAROVA.

Tarbiya – vijdon ishi, ta'lim esa fanning vazifasi. Keyinchalik inson voyaga yetgach, bilimning bu ikki turi birini to'ldiradi.

Viktor GYUGO.

Maktabda obuna

AKAM NEGA A'LOCHI?



Ko'chada o'zaro suhbatlashib ketayotgan ikki o'quvchi diqqatimni tortdi.

–Ta'til kunlari maktabimizda fan olimpiadalari o'tkazildi, dedi ulardan biri. – G'oliblar tuman olimpiadasida ishtirok etisharkan. Ularning orasida mening akam ham bor.

–Senga mazza-da, - dedi ikkinchi

bola, –a'lochi akang bor, misol-masalalaringni ham yechib bersalar kerak, a?

–Hecham-da! Akam, hamma narsaga o'zing harakat qilishni o'rgan, deyдилar. Faqat tushunmagan masalalarim shartini ko'rsatsam, tushuntirib beradilar, xolos...

Bu aqlli bolajonlar Yunusobod tumanidagi 143-maktabda o'qishar ekan. Ta'lim maskani haqida yana ham ko'proq bilim kelib, u yerga yo'l oldim. Maktab direktori Gulnora opa Usta-Azizovani maktab hovlisida uchratdim.

–Kunlar ham soviy boshladi, xo'jalik mudiri bilan isitish tarmog'ini ko'zdan kechirayotgandik,–dedilar opa chang bo'lgan ust-boshlarini qoqarkanlar. Suhbatimizni rahbarning xonasida davom ettirdik.

–Maktabimizda 375 nafar o'quvchi tahsil oladi. –Ularga 20 nafar oliy ma'lumotli o'qituvchilar dars berishadi. Fizika, kimyo fanlaridan laboratoriya xonalari mavjud. U yerda o'quvchilar o'qituvchilari yordamida turli tajribalar o'tkazishadi. Nazariya amaliyot bilan birga olib borilsa, o'quvchi uni tezda ilg'ab oladi-da. Shuningdek, kompyuter xonasi ham o'quvchilarimiz ixtiyorida. Maktab, mahalla, oila konsepsiyasi bo'yicha, ota-onalar, hudud nozirlari, yo'l-patrul xizmati inspektorlari bilan uchrashuvlar bo'lib turadi. Shuningdek, maktabimizda tibbiyot xonasi ham bor. Tobi qochib qolgan o'quvchilar shu yerning o'zida bemaol muolaja olishlari mumkin. Ta'til kunlarida maktabimizda fan olimpiadalari o'tkazildi. Kimyo fanidan 9-«B» sinf o'quvchisi Mirzaahmad Islomov, fizika fanidan 9-«B» sinf o'quvchisi Behzod Tursoatov, chizmachilikdan 9-«B» sinf o'quvchisi Dilshod Pozilov, informatikadan 9-«A» o'quvchisi Alim Bekqulov g'olib bo'lib, tumanlararo o'tkaziladigan olimpiadalarga yo'llanma olishdi. Tumanda o'tkazilgan «Umid nihollari» sport musobaqasida sportning shaxmat-shashka, futbol turlari bo'yicha ishtirok etdik. Shaxmat bo'yicha Nigora Ortiqova, futbol bo'yicha 4-«A» hamda 4-«B» sinf o'quvchilari qatnashdilar. Maktabimizda har seshanba «Ma'rifat kuni» o'tkaziladi. Darslardan so'ng o'quvchilarning sevimli nashrlari «Gulxan», «G'uncha», «Sinf-dosh» jurnallari, «Tong yulduzi», «Klass!» gazetalarida chop etilgan maqolalar yuzasidan bahs-munozaralar o'tkaziladi. Maktab kutubxonasida ham o'quvchilar doim gavjum. Hamma yerda bo'lgani kabi bizning bilim maskanimizda ham obuna ishlari qizg'in davom etyapti. Shu kungacha «Tong yulduzi»ga 65 nafar o'quvchimiz obuna bo'lishgan. Yangi yilgacha bu ko'rsatkich har o'n o'quvchiga bittadan bo'lishiga va'da beraman. Axir «Tong yulduzi» bolalarimizning sevimli nashri-da.

Yaqinda bilim dargohimizda Konstitutsiya bayramiga bag'ishlab «Huquqingizni bilasizmi?» deb nomlangan tanlov o'tkazmoqchimiz. Tadbirimizga albatta tashrif buyuring, shunda o'quvchilarimiz bilimi qay darajada ekanligiga o'zingiz amin bo'lasiz. Gulnora opa bilan xayrlasharkanman, maktabni qadrdon uyi, o'quvchilarni esa o'z farzandidek ko'radigan, yutuqlaridan astoydil quvonib, muammolaridan qayg'uradigan bunday insonlarning ko'pligidan quvondim. Ular bor ekan, shogirdlari o'z gazetasining haqiqiy obunachisiga aylanadi.

s i n f
singari o'quvchilarimiz

o'tkaziladigan olimpiadalarga yo'llanma

KUCHLI NOLA

Idrok qil

TANIB OL

Suruvdagi qo'y-echkilar orasida bittagina cho'chqa bolasi ham bor edi. Kunlarning birida cho'pon uni tutib olgandi, cho'chqacha dunyoni buzguday chinqira boshladi. Uning bu qilg'ini ko'rib qo'y-echkilar: «Axir, cho'pon bizlarni tutib olguday bo'lsa, senga o'xshab chinqirmaymiz-ku!» deyishdi. Bunga javoban cho'chqacha dedi: «Cho'pon meni sizlarni ushlagandek ushlaymaydi-da, sizlardan unga sut yo jun kerak, mendan esa faqat go'sht!»

Alqissa, moli emas, joni xavfda qolganlarning nolalari kuchliroq bo'lishi bejiz emas.

Yaylovda yelkasi yag'ir bo'lib shilini ketgan eshak o'tlab yurardi. Shu asno sho'rlikning beliga qarg'a qo'ndiyu, yaralarini cho'qishga tushdi. Eshak og'riqning zo'ridan bo'kirganicha o'zini har yon urarkan, nariroqda tomosha qilib turgan egasi tinmay xaxolab kulardi. Ittifoqo yaqinginadan o'tib borayotgan bo'ring ko'zi bu manzaraga tushib, o'z-o'ziga: «Shundog'am badbaxt bo'lamizmi-a?! Odamlar bizga ko'zi tushdi deguncha quvib soladilar, qarg'a shundoq yopishib olibdi-yu, uning ustidan kuladilar, xolos-a!» - dedi.

Alqissa, yovuz kimsalarni uzoqdanoq tanib olish mumkin.



maydonida to'p surayotgan qizil va havorang ko'ylakli bolalarni Shohruh bir lahza tomosha qildi-da, bog'cha tomon yugurib ketdi. Singlisi Gulnozani olib qaytishida yana tomoshani davom ettirdi.

Shohruh akasining hamma o'rtoqlarini taniydi. Lekin bugun havorang ko'ylakda futbol o'ynayotgan bolalarni tanimadi. O'yin tugadi chog'i, bolalar birlarining qo'llarini siqishib xayrlasha boshlashdi. Havorang ko'ylakli bolalar yonida turgan Shohruhning akasi Farruh ukasini ko'rib, yugurib keldi. Va uning qulog'iga ohistagina shivirladi:

–Ukajon, bitta xizmat qilgin.

–Qanday xizmat ekan, akajon?

–Hozir uyga borib, boyitilgan undan buvim yopayotgan kulcha-nonlardan va somsalardan 5-6 dona olib kelgin.

–Akajon, o'zingiz uyga borib yesangiz bo'lmaydimi?

–Yo'q ukajon, bo'lmaydi. Men kosmosdan kelgan

o'rtoqlarimni boyitilgan undan pishirilgan kulcha va somsalar bilan mehmon qilmoqchiman.

Shohruh havorang ko'ylakli bolalarga bir qarab qo'ydi-da, uyiga yugurib ketdi.

Buvisi somsalarini endigina pishirib bo'lgan ekan, nevarasini ko'rib xursand bo'ldi.

–Kelaqol, issig'ida somsadan yeb olgin.

–Yo'q buvijon, men akamning topshirig'i bilan keldim.


KOSMOSDAN KELGAN BOLALARGA

BOYITILGAN KULCHA...

–Qanday topshiriq ekan?

–Akam futbol o'ynagani kosmosdan kelgan o'rtoqlarini boyitilgan undan pishirilgan kulcha-non va somsalar bilan mehmon qilmoqchi ekan. Kosmosda ham kamqonlik muammosi bo'lsa kerak-da, - deb qo'shib qo'ydi bilag'onlik bilan.

Buvisi fantastik ertak va hikoyalarni yaxshi ko'radigan, o'ta ishonuvchan nabirasining gaplariga



miyig'ida kulib qo'ydi-da, hozir bolam, dedi.

Bitta patnischaga 4ta kulchanon, somsalar yoniga biroz shirinliklardan solib, ustini sochiq bilan yopdi-da, mana bolam, olib boraqol, dedi.

Ikki qo'lini orqasiga berkitib olgan Gulnoza, buvijon, men ham boraman, deb qoldi.

–Qo'lingdagi nima?

–Haligi, olma bilan xurmo. Olmada temir va darmondorilar ko'p, xurmada esa yod moddasi bor, deb o'zingiz aytgan edingiz-ku. Men ham kosmosdan kelgan bolalarni mehmon qilmoqchiman.

Buvisi kula-kula olma va xurmolardan yuvib, elimdan tayyorlangan xaltaga soldi-da, Gulnozaning qo'lga tutqazdi.

Kosmosdan kelgan bolalarni boyitilgan un mahsulotlari bilan mehmon qilish voqeasi ancha vaqtgacha oilada eslanib turildi.



Salomat G'OYIBNAZAROVA.



QIZILTEPALIK USTOZLAR

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani Xalq ta'limi bo'limi mudiri Tursunpo'lat aka Fatxullayev va muovini Bahridin Shamsiddinovlar tumandagi Mirzo Azim Soliy, Alisher Navoiy, Sadridin Ayniy kabi bir qator maktablarni hech cho'chimay, davr talabi asosida ish yuritayotgan bilim maskanlarimiz, deb tilga oldilar. Bu maktablarning yosh sportchilari viloyat, respublika miqyosidagi musobaqalarda qatnashib, yuqori o'rinlarni egallab kelishyapti ekan. Boks klubi, «Navoiy ijodi bilimdonlari»; «Yashil chiroq», «O'qituvchimiz ijodkor» kabi ko'plab tanlovlarda sovrinli o'rinlarni olishibdi. Yaqinda Bo'ston qishlog'idagi «Mirza Somiy Bo'stoniy» nomli maktab ham kapital ta'mirdan chiqarilib, u yerda o'quvchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilibdi. Shu maktabda uzoq yillardan buyon ishlab, o'qituvchilikdan direktor lavozimigacha ko'tarilgan Xalq ta'limi a'lochisi Turob aka Muhammedovning sa'y-harakatlari sabab, o'quvchi-

lar fan olimpiadalari-yu turli tadbirlarning ching'oliblari ekan.

Respublika miqyosida o'tkazilgan «Siz qonuni bilasizmi?» va «Qushlar bayrami» ko'rik-tanlovlarida faxrli o'rinlarga sazovor bo'lishgani ham bundan dalolatdir.

Maktab voleybolchilari «Umid nihollari» sport musobaqasida qatnashib, uch yildan beri viloyatda birinchi o'rinni, respublikada ham faxrli uchinchi o'rinni egallab kelishyapti. Ular iqtidorli o'quvchilar ko'rik-tanlovida ham birinchi o'rinda ekanlar. Besh nafar o'quvchi Respublika bosqichida ishtirok etib, faxrli o'ringa sazovor bo'lgan bo'lsa, «Yil maktabi» ko'rik-tanlovida ham viloyatda eng yuqori o'rinlarni egallab turishibdi. Bunda Baraka Temirov, Faxriddin Nurov, Hurmat Jumayeva, To'lqin Muhammedov, Ziyoda Muhammedova kabi jonkuyar ustozlarning hissasi kattadir.



Ustozlar eng avvalo bolalarni sevishi, ular ruhiyatini yaxshi bilishi va o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi kerak. Bunday ustozlar e'zozga loyiq. Tursun aka boshliq qiziltepalik bog'ri keng, izlanuvchan, fidoyi ustozlar bor ekan, bolalar o'z bilim maskanlariga har kuni talpinib boraveradilar.

Safar taassurotlari

HAMMA YAXSHI NARSALAR BOLALARGA!

G'ijduvon Buxoro viloyatining eng katta va go'zal tumanlaridan biridir. Bu yerda 70dan ortiq maktabgacha tarbiya muassasalari bo'lib, tuman Xalq ta'limi bo'limi rahbari Fazliddin aka Sattorov, o'rinbosari Ibrohim Norovlar binolarni ta'mirlanishiyu o'yinchoqlar, sport anjomlari bilan ta'minlanishiga alohida e'tibor berishar ekan.

Tuman uslubchilari Baxshanda Adizova, Zebuniso Doniyorova, Ma'rifat Usmonovalar bilan uchrashib, tumaning tahsinga loyiq bog'chalarini borib ko'rdik. Baxshanda opa bog'cha xodimlari-yu u yerda tarbiyalanayotgan

bolajonlar hayotini bizga zavq bilan gapirib berdilar. O'raloy Atoyeva rahbarlik qilayotgan 10-bog'cha, Marhabo Baratova rahbarlik qilayotgan 16-bog'cha, Mehriniso Ahadova rahbarlik qilayotgan 51-bog'cha, Oydin Haydarova rahbarlik qilayotgan 3-bog'cha, Dilbar Rahimova rahbarlik qilayotgan 2-bog'chalar ayniqsa tahsinga savovor ekan. 10-bog'cha kichkin-toylari respublika miqyosida o'tkaziladigan «Sog'lomjon-polvonjon» tanlovida ikki yildan buyon g'oliblikni qo'ldan bermay

kelayotgan bo'lsa, «Sitora» bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilari



«Onamning suratini chizaman» tanlovida YUNISEFning 500 ming so'mlik sovg'asini olishga sazovor bo'lishibdi. «Qaldirg'och», «Gullola», «Dilshod» nomli bog'cha tarbiyachilari Muhabbat Adizova, Hosiyat Odilova, Mohigul Ergasheva, Marhabo Xudoyberdiyevlar «Yil tarbiyachisi» unvoni bilan taqdir-

langanlar. Mehriniso Majidova mudiralik qilayotgan «Shafolat» nomli sog'lomlashtirish bolalar bog'chasi esa nafaqat viloyatda, balki respublikada ham eng namunali bog'chalardan biri sanaladi.

Bir so'z bilan aytganda, «Uchinchi ming yillik bolasi» dasturi asosida tarbiyalanayotgan g'ijduvonlik kichkintoylar mehribon, jonkuyar tarbiyachilari qo'lida sog'lom va bilimdon bo'lib kamolga yetmoqdalar.

Nodira MIRZAYEVA.

SHE'R AZIZ OLAM ARO

Erkin VOHIDOV

BIR NIHOL

Yulduzim, bog'ingga bir nihol qada,
Bu bahorini Yaxshilik ata.

Niholing yoniga bir gul ekib qo'y,
U gulning ismini Go'zallik deb qo'y.

Gulu niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bulog'ga Mehr deb qo'y ot.

Sendan farqningni bog' qolsin, ey do'st,
Bog'ing iltim degan nom olsin, ey do'st.

«TARBIYA»

Jiyan tog'asiga «jinnisan» desa,
Ota tanbeh berdi o'g'liga sekin:
Tog'ang katta odam, kattani esa,
Sizlash kerak, o'g'lim, «jinnisiz», degin.

KA'BATULLOH

Imon-u namoz-u ro'za-yu zakot –
Farzin ado etmay, el ko'zi uchun –
Hoji degan nomni olmoq bo'lgan zot –
Qulog'iga gapim, bir o'zi uchun:

Nafi yo'q zar sochib gunoh yuvishning,
Rahmon ham, jabbor ham yolg'iz Ollohdur.
Bir dardmand qarindosh, bir muhtoj qo'shning,
Ozurda yuragi Ka'batullohdur.

IKKI JAHONNI SADQA QIL

Yaxshilik qilma bировga ko'z uchun,
Yaxshilik asli bировmas, o'z uchun.

Rizqi ro'z berdim dema, odam axir,
Kelmagay dunyoga rizqi ro'z uchun.

Ne olib ketgay bu olamdan kishi,
Bori savdo ikki gazlik bo'z uchun.

Gar jahonning shohidursan, zorsan,
Mehr atalgan malham-u dilso'z uchun.

Jon nadir, ikki jahonni sadqa qil,
Do'st senga aytgan bir og'iz so'z uchun.

DEMANG, SHOIR TINIB KETDI

Demang, shoir tinib ketdi,
Siyosatga inib ketdi.

Va yo aytmangki, mo'rt toldek,
Shamollarda sinib ketdi.

Siz, ey lutf bahrida g'avvos,
U sizni sog'inib ketdi.

Demang, shoir jimib ketdi,
G'azal yozmay tinib ketdi.

Tinib ketsa, bilingizki,
Yog'och otga minib ketdi.

O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat jamg'armasi tavsiyasiga binoan e'lon qilinmoqda.

«Qadrdon do'stim Zaynab!

Xatingni olib, juda xursand bo'ldim. Yashavor. Ochig'ini aytsam, Anqaraga borgandan keyin bizni esdan chiqarib yuborasan, deb o'ylagandim. Xatingni sinfdagi hamma bolalarga o'qib berdim. Toza xursand bo'lishdi. Hammalari senga salom aytishdi. Men ham so'zinning ustidan chiqaman. Bu yerda yuz beradigan muhim voqealar haqida senga albatta yozib turaman.

Sen Anqaraga ko'chib ketganingdan keyin men qiziq bir hodisaning guvohi bo'ldim. Hozir senga shuni hikoya qilib beraman:

O'qituvchimiz bir kuni ertalab sinfga hovliqib kirib keldi-da, bizni tekshirgani inspektor kelayotganmish, dedi. O'qituvchining rang-ro'yini ko'rib, bizni battar qaltiroq bosdi. O'sha kuni eshitsak, inspektor qo'shni maktablarda ham bo'lgan ekan. U yerda nima ishlar qilganini darrov taniş bolalardan surushtirib bilib oldik. Ma'lum bo'lishicha, u to'g'ri sinfga kirib borarkan-da, o'qituvchiga doskaga biror masala yozib, o'quvchilarga yechtirishni buyurarkan. Shundan keyin o'qituvchiga aytib, bolalardan diktant oldirarkan. Diktantlarni yig'ishtirib, shaxsan o'zi tekshirib chiqarkan. Oxiri u savol-javobga o'tarkan. Nima savol berishini ham bilib oldik. So'raydigan narsalari shu ekan: «Amerika qachon kashf etilgan?», «Eng sevgan odaming kim?», «Istambulni kim zabt qilgan?», «Sulaymoniya machitini kim qurgan?».

O'qituvchimiz bizga yangi daftar tutishni buyurdi. Shundan keyin u doskaga qiyin bir masalani yozib, shu yerning o'zidayoq uni o'zi yechdi-da:

–Mana endi buni yaxshilab ko'chirib olinglar, – dedi.

Masalani yechimi bilan boplab ko'chirib oldik. O'qituvchimiz uni o'chirib, o'rniga she'r yozdi:

–Buniyam aynan ko'chirib olinglar!

Yana aytganini qildik. Shundan keyin u hammaning daftarini ko'rib berdi. Xatolari bo'lsa, tuzatib chiqdi.

–Bolalar, janob inspektor sinfimizga kirsa, men sizlarga mana shu masalani berib, shu she'rni diktantga yozdiraman, – dedi u oxiri.

Buyog'idan ko'ngli xotirjam bo'lgach, o'qituvchimiz masalaning ikkinchi tomoniga o'tdi.

–Endi ba'zi savollarga beriladigan javoblar bilan tanishib chiqamiz. Inspektor janoblari nimani so'rab qolsa, shuni sharillatib javob berishingiz kerak.

Biz savol-javoblarni yodlashga o'tdik.

–Amerika qachon kashf etilgan?

Butun sinf baravariga guvillaydi.

–1492- yilda.

–Sen uchun eng aziz odam kim?

Bu savolga har kim har xil javob bergani uchun sinfdagi qiy-chuv ko'tarildi. Ba'zilar Otaturkning nomini aytilishsa, qolganlari oyisi bilan dadasini tilga oladi. O'qituvchimiz keyingi savolga o'tadi:

–Istanbulni kim zabt qilgan?

Darhol javobni yopishtiramiz:

–Sulton Mehmed Fotih!

–Sulaymoniya machitini kim qurgan?

Hali u so'rab ulgurmasdanog, sharillatib javob beramiz:

–Me'mor Sinon.

Savol-javoblarni yodlashga ikki kun vaqtimiz ketdi. O'qituvchimiz har ikki gapning birida «Javoblarga ehtiyot bo'linglar, tag'in adashib-netib o'tirmanglar», deb ogohlantirib qo'yardi.

Hammagini qoyillatib yodlab oldim. «Javoblarni bir safga tizib, o'zimcha qaytaraman: 1492. Dadam. Sulton Mehmed Fotih. Me'mor Sinon. 1492. Dadam. Sulton Mehmed Fotih. Me'mor Sinon. 1492. Dadam ...»

Azbaroyi bular miyamga qattiq o'rmashib qolganidan yurgan yo'lhimda pichirlab gapiradigan odat chiqaribman.

–Ha o'g'lim, tobog'ing yo'qmi? – so'rab qoldi oyim bir kuni ertalab.

–Yo'q, tuzukman.

–Hayronman. Tuni bilan «1492. Dadam, Sulton

SHUNAQA KITOB BOR!

Aziz bolalar! Kitob – bilim chirog'i, aql qayrog'i deymiz-u, qaysi kitob sizga qanday ta'sir qilayapti, bilmaymiz. Balki ayrimlaringiz kitob o'qishdan bezib qolganingizga ana o'shanaqa kitoblar sababdir? Chunki keyingi paytlarda usti yaltiroq, ichi qaltiroq kitoblar ko'payib ketgan. Asl kitobxon qanday kitob tanlashni biladi. Biz esa bu sahifamizda boshlovchi kitobxon bolalarga kitoblarni saralab o'qishni o'rgatamiz. Aziz NESINning «G'aroyib bolalar» nomli kitobini turk tilidan Miad Hakimov tarjima qilgan. Quyida shu kitobdan parcha e'lon qilayapmiz. O'qing, qiziqib qolsangiz, kitobni topishga harakat qilasiz va bilasiz: kitob zeriktirmaydi. Yaxshi kitob chindanda yaxshi do'st, maslahatchi va tarbiyachidir!

Mehmed Fotih. Me'mor Sinon», deb alahlab chiqding...

Biz kutgan inspektor o'sha kuni erta bilan sinfga kirib keldi. O'zing bilasan-ku, menda hovliqish odati yo'q. Lekin o'sha kuni nimagadir ichimdan titiroq kelib, yuragim xapriqib ketaverdi. Balki o'qituvchimizning ahvolini ko'rib, shunday bo'lgandirman. Boyaqishni qaltiroq bosib, qo'li titrayotganini birinchi marta o'shanda ko'rdim.

–Qani, o'quvchilarga diktant yozdiring-chi!– dedi inspektor.

O'qituvchimiz bizga ma'lum bo'lgan she'rni diktant qila boshladi. Bolalar uning aytganini yozayotgandek bo'lib, ruchkalarini jo'rttaga qitirlatib qo'yishardi. Vaholanki, bu diktant daftarimizga allaqachon bexato ko'chirib qo'yilgan edi. Diktant tugagach, inspektor daftarlarimizni birma-bir tekshirib

ch i q d i .
Birtamizdan ham zarracha xato topolmadi.

–O'quvchilarga yaxshi saboq beribsiz, tashakkur!– dedi u boshi osmonga yetib. Inspektor chap qatorda o'tirgan Chingizning daftarini ko'rishni unutgan ekanmi, bir payt: «Qani, senikiniyam bir ko'raychi!» – deb qoldi.

Chingiz unga daftarini uzatdi.

–Bu nimasi?– tutoqib ketdi inspektor.

–Diktant, afandim.

–Qanaqa diktant bu?

Inspektorning fig'oni falakka chiqdi.

Chingiz o'tirgan tomonga sekin o'girilib qaragan edim, voqea ma'lum bo'ldi: bola bechora qo'rqib ketganidan daftarining tayyor masala yozilgan betini ochib yuboribdi.

–Hozir yozgan diktanting qani?

Chingiz sal bo'lmasa diktantni ochib ko'rsatay deydi, yaxshiyamki o'qituvchimiz inspektorning orqasida turgan ekan, Chingizga har xil imo-ishoralalar qilib, zinhor diktantni ko'rsatmaslik kerakligini tushuntirdi.

–Diktantni yozolmadim, afandim.

Inspektor Chingizga sirli ishoralar qilayotgan o'qituvchiga o'girildi:

–Dokaga masala yozing, yechib berishsin.

O'qituvchimiz lavlagidek qizarib ketdi.

Aslida biz inspektor oldin masala berib, keyin diktant o'tkazadi, deb o'ylagan edik. Qo'shni maktab bolalari shundoq deyishgandi: Chingizning esankirab qolishiga sabab ham shu tartibning o'zgarishi bo'ldi.

Chingizning daftarini hamon inspektorda edi, shunga ko'ra o'qituvchi doskaga boshqa bir masalani yozishga majbur bo'ldi. O'zing yaxshi bilasan, arifmetikadan nuqul a'lo olaman. Lekin hamma qatori men ham rosa esankirab qolgan ekanman, masalani sirayam yecholmadim. Daftarlarimizni ko'rib, inspektorning qovog'i uyuldi. O'qituvchimiz qanchalik xijolat bo'lganini aytmaysizmi? «Inspektor mendan so'raydiganni so'rasin-u, o'qituvchimizning yuzini yorug' qilay», deyman o'zimga-o'zim. Keyin asta pichirlayman: «1492. Dadam. Sulton Mehmed Fotih. Me'mor Sinon. 1492...»

Inspektor mening holatimni sezgan ekanmi, to'satdan:

–Qani, o'ringdan tur-chi, –deb qoldi.

Xursand bo'lib ketdim. Darrov dik etib o'rnimdan turdim. Nima bo'lganini bolalar keyin gapirib berishdi. Inspektor oldiniga:

–Yoshing nechada?– deb so'rabdi. Azbaroyi yuragim tipirchilab turganidan savoli qulog'imga boshqacha eshitilibdi. Mendan Amerika qachon kashf etilganini so'rayapti, deb o'yladim.

–1492, afandim,– dedim ovozni baralla qo'yib.

Inspektorning ko'zi ola-kula bo'lib ketdi.

–Nima-a-a?

Necha yoshdasan?

Nazarimda javobni do'ndirib qo'yganman. Shuning uchun yana tomoqqa kuch berdim:

–1492, afandim.

–Istanbulni fath etgan kim?

Beriladigan javoblarni tartib bilan yodlab olganman. Shunga ko'ra navbatdagi javobni aytdim:

–Dadam.

Inspektor nimani oldin, nimani keyin so'rashi ma'lum edi. Endi bizga qolganda bu tartibni buzishini men qayoqdan bilay?!

Mehmon polni gursillatib bir tepdi:

–Sendan Istanbulni kim fath etgan, deb so'rayapman.

–Dadam-da, afandim.

–Dadang kim o'zi?

–Me'mor Sinon.

–Nima deb valdirayapsan, o'g'lim? Dadangni so'rasam, me'mor Sinon deysan.

Ish pachava bo'lganini shundagina tushundim. Ammo rosa esankirab qolgan ekanman, buning ustiga inspektor bo'kirib turibdi, es-hushimni yig'ib ololmadim.

–Xo'sh, me'mor Sinon nima qilgan?

Kutilmagan savol meni battar chalg'itib yubordi.

–Istanbulni fath etgan, afandim,– dedim jon holatda.

–Kim fath etgan?

–Kim bo'lardi, me'mor Sulaymon-da,– dedim hozirgina yo'l qo'ygan xatoimni tuzatmoqchi bo'lib.

–Undoq bo'lsa, Sulaymoniya machitini kim qurgan?

–Sulton Sinon Fotih.

Javoblar bir-biriga qorishib ketganini o'zim ham sezib turibman-u, lekin noilojman: karaxt bo'lgan odamga o'xshayman.

Inspektorning g'azabi qaynab ketdi. Jahl ustida nima deganini o'zi ham bilmay qoldi.

–O'g'lim, Amerikani qurgan odam me'mor sulton Mehmed bo'ladi. Sulaymoniya machitini esa Fotih Sinon kashf etgan.

Bolalar qiqirlashib qoldi. Inspektor noto'g'ri gapirib qo'yganini sezdi.

–Yani, aytmoqchimanki, Sinoniya machitini me'mor Sulaymon qurgan. Fotihni me'mor sulton Mehmed fath etgan.

Yana qovun tushurib qo'ydi.

–Meni ham yo'ldan urding, bolakay,– dedi u oxiri o'zini oqlamoqchi bo'lib.

Inspektor boshini tebrata-tebrata jahl bilan tashqariga chiqib ketdi.

Sinf suv qo'ygandek jim bo'ldi.

–Ming afsus!– deb yubordi o'qituvchimiz anchadan keyin o'ziga kelib.


Bu gapni u menga qarab aytdimi, inspektorgami yoki o'zimgami, yaxshi tushunolmadim.

O'sha kuni rosa yuzim shuvut bo'ldi. Buni senga ta'riflab berishga oqizman. Shu voqea esimga tushsa, hali-hall azob chekaman. Holbuki, niyatim xolis edi. Men inspektorning so'ragan narsalariga sharillatib javob bermoqchi va bu bilan o'qituvchimizning obro'yini saqlab qolmoqchi bo'lgan edim.

Sen ham va'daga vafo qil. Yangiliklardan yozib tur. Xo'p-mi? Xatingni kutaman. Sengayam muvaffaqiyat tilayman, do'stim.

Sinfdoshing Ahmad TARBAY».

Sahifani Nuriddin AKBAROV tayyorladi.



AMERIKANI QURGAN ME'MOR

OTALAR-U ONALAR, AKA-OPA, BOLALAR, BUVA, BUVI, AMMANING, XULLAS, HAMMA-HAMMANING DIQQATIGA!

Respublika bolalari va o'smirlarining yagona gazetasi «Tong yulduzi»da «REKLAMA VA E'LONLAR» burchagi ish boshladi. Bu – Sizga eng zarur yangilik va xabarlaringizni, taklif va tabriklaringizni gazeta sahifalarida E'LON QILDIRISH, namunali ishlaringizni respublikaga YOYISH, o'zingizga HAMKOR TOPISH imkoniyatini beradi.

Buyurtmangizning TEZ va SOZ, A'LO darajada bajarilishiga kafolot beramiz.



TASHKILOT, MUASSASA, BOLALAR VA O'SMIRLAR BILAN BOG'LIQ BO'LGAN BARCHA JAMOALAR DIQQATIGA!

«Tong yulduzi» Sizning zarur xabar, reklama va e'lonlaringizni respublika bolalari e'tiboriga sodda, tushunarli, sifatli, rang-barang va mazmunli qilib yetkazish kafolotini beradi.

BOLALAR VA O'SMIRLAR IJODIYOT MARKAZLARI, MUSIQA MAKTABLARI, SPORT MAJMUALARI RAHBARLARI DIQQATIGA!

«Tong yulduzi» sahifalaridan Sizlar tashkillashtirayotgan ko'rik va tanlovlar, san'at bayramlari, sport musobaqalariga ham keng o'rin beriladi. Amalga oshirayotgan ibratli ishlaringizdan respublikadagi barcha o'quvchilarni ham xabardor qilish imkoniyatidan unumli foydalanasiz, degan umiddamiz.

LITSEYLAR, KOLLEJLAR, TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARI DIQQATIGA!

Bilim maskaningizda qaysi soha, yo'nalish bo'yicha mutaxassislar tayyorlamoqchisiz va buning uchun qanday hujjatlar talab qilinadi? Qabul kunlaringiz qachon? Shular haqidagi e'lon va xabarlaringizni gazetamiz orqali chop ettirishingiz mumkin. Chunki sizlarning bo'lajak talabalarining bizning bugungi o'quvchilari-mizdir. Bunday qulay IMKONni qo'ldan boy bermang!



BOLALAR VA ULARNING OTA-ONALARI, BUVA VA BUVIJONLARI, YAQINLARI, DO'ST VA DUGONALARI DIQQATIGA!

Bizda farzandlaringiz, tengdoshlaringiz, do'stlaringizga tug'ilgan kunlari, bayram va tantanalar munosabati bilan kutilmagan sovg'a taqdim qilish IMKONIYATI ham yaratildi. Gazeta orqali yaqinlaringizni tabrik-lasangiz (xohlasangiz fotosuratlar bilan), bu qutlov ularga olam-olam quvonch bag'ishlashi tayin. Bu xayrli ishni ham GAZETAMIZ qoyillatadi.

Xullas, bizning IMKONIYAT TEZ va SOZI!

BOLALAR BADIY JAMOALARI, DASTALARI, TO'GARAKLARI DIQQATIGA!

Xabar bering, qachon, qayerda, qanday sana, bayram munosabati bilan konsert dasturlari namoyish etmoqchisiz? Gazetamiz orqali o'z konsertingizga minglab tomoshabinlarni taklif etishingiz mumkin.

RESPUBLIKA QO'G'IRCHOQ TEATRI, TOSHKENT DAVLAT SIRKI, BOLALAR KINO-TEATRLARI, YOSH TOMOSHABINLAR TEATRI RAHBARLARI DIQQATIGA!

Yil bo'yi bolajonlar uchun juda qiziqarli kinofilmlar, teatr hamda sirk tomoshalari, kecha va tadbirlar uyushtirishingizni yaxshi bilamiz. Afsuski, tomoshalaringiz har doim ham o'z muxlislarini topavermaydi. Sababi, ko'pchilik bolalar bunday tomoshalardan bexabar qolishadi-da.

Tomosha zallaringiz hamisha yosh tomoshabinlar bilan to'liq bo'lishini xohlasangiz, bu ishda Sizga yaqin ko'makchi bo'lamiz. Chunki barchamizning maqsad-maslagimiz yagona – bolalar ma'naviyatini yanada boyitish.

Tabriklaringiz, yangilik va e'lonlaringizni quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatining «Reklama va e'lonlar» bo'limiga, deb yozing.

Bu xususdagi barcha savollaringizga 144-27-25 yoki 144-63-08 raqamlari orqali javob olishingiz mumkin.

Boshqa viloyatlardagi buyurtmachilar telefon, faks, internet orqali bog'lanib, o'z xabar va e'lonlarini bizga yetkazishlari mumkin.

Gazetamiz orqali reklama, e'lon, yangilik, xabar va tabriklar e'lon qildirishning BIRGINA sharti bor: u ham bo'lsa, «Tong yulduzi»ga bir yilga obuna bo'lganlik haqidagi obuna varaqasini ko'rsatish.

«TONG YULDUZI» tahririyati.

TONG yulduzi

BOSH MUHARRIR:
Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy

kengashi raisi o'rinbosari),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston

matbuot va axborot

agentligida

022-raqam bilan 2003-

yil 11-dekabrda

ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 16864

Buyurtma N: J 3049

Dizayner va

sahifalovchi:

Fazliddin

SHOYODGOROV

Navbatchi:

Muharrama

PIRMATOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10